ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 25.07.2026 · Принята: 27.08.2026 · Опубликована: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/04jxqt28

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Mirxalil Mahmudov ijodiy qiyofasiga bir nazar

(A look at the creative profile of Mirkhalil Makhmudov)

Ravshan Yunusov

Department of Uzbek Maqom History and Theory
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: r_yunusov@list.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, kompozitor va professor Mirxalil Mahmudovning ijodiy faoliyati o‘zbek milliy kompozitorlik maktabi hamda simfonik musiqa taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda yoritiladi. Kompozitorning kasbiy shakllanish jarayoni, ustozlari ta’siri, jahon kompozitorlik san’ati tajribalarini o‘zlashtirishi va milliy musiqa an’analariga asoslangan individual ijodiy uslubining qaror topishi ko‘rib chiqiladi. Xususan, uning “Navo” nomli Birinchi simfoniyasi misolida maqom ohanglari, an’anaviy cholg‘u tembrlari va zamonaviy simfonik dramaturgiya vositalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi ochib beriladi. O‘zbek simfonik musiqasida XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan yangilanish jarayonlari, “milliy simfonizm” va “maqom simfonizmi” tushunchalarining shakllanishi Mirxalil Mahmudov ijodi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Shuningdek, kompozitorning uchta simfoniyasi, “Muhammas va ufor” turkumi, turli janrlardagi orkestr asarlari, kantata va oratoriyalari, musiqali teatr, kino hamda opera san’atiga oid ijodiy izlanishlari tavsiflanadi. Uning asarlarida milliy musiqiy tafakkur, mualliflik yondashuvi, janr va shakl imkoniyatlaridan foydalanish hamda zamonaviy kompozitsiya tamoyillarining o‘zaro munosabati asosiy e’tibor markazida turadi. Maqolada Mirxalil Mahmudovning ko‘p qirrali ijodiy merosi o‘zbek professional musiqa san’atining rivojlanish bosqichlari doirasida baholanib, kompozitorning milliy musiqiy an’analarni yangi badiiy ifoda vositalari bilan boyitishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ijod yo’li, simfonizm, maqom simfonizmi, milliy o’ziga xoslik, novatorlik, musiqiy tafakkur.

Abstract

This article examines the creative work of Mirkhalil Makhmudov, Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan, composer, and professor, in close connection with the development of the Uzbek national school of composition and symphonic music. It explores the composer's professional formation, the influence

of his mentors, his assimilation of the traditions and achievements of world compositional practice, and the development of his individual creative style rooted in national musical traditions. Particular attention is given to his First Symphony, Navo, which demonstrates the interaction of maqom intonations, the timbres of traditional musical instruments, and the techniques of modern symphonic dramaturgy. The processes of renewal in Uzbek symphonic music during the second half of the twentieth century, as well as the emergence of the concepts of "national symphonism" and "maqom symphonism," are examined in relation to Mirkhalil Makhmudov's creative work. The article also discusses the composer's three symphonies, the Muhammas and Ufar cycle, orchestral works in various genres, cantatas and oratorios, and his creative explorations in musical theatre, film music, and opera. Particular emphasis is placed on the interrelationship between national musical thinking, the composer's individual artistic approach, the use of genre and formal possibilities, and contemporary compositional principles in his works. The article evaluates Mirkhalil Makhmudov's multifaceted creative legacy within the broader historical development of Uzbek professional music and highlights his contribution to enriching national musical traditions through new means of artistic expression.

Keywords: creative development, symphonism, maqom symphonism, national distinctiveness, innovation, musical thinking.

Аннотация

В статье рассматривается творческая деятельность заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан, композитора, профессора Мирхалила Махмудова в тесной взаимосвязи с развитием узбекской национальной композиторской школы и симфонической музыки. Освещаются процесс профессионального становления композитора, влияние его наставников, освоение опыта мирового композиторского искусства и формирование индивидуального творческого стиля, основанного на традициях национальной музыки. В частности, на примере Первой симфонии «Наво» раскрывается взаимодействие макомных интонаций, тембров традиционных музыкальных инструментов и средств современной симфонической драматургии. Процессы обновления узбекской симфонической музыки во второй половине XX века, а также формирование понятий «национальный симфонизм» и «макомный симфонизм» рассматриваются в контексте творчества Мирхалила Махмудова. Наряду с этим характеризуются три симфонии композитора, цикл «Мухаммас и уфар», оркестровые произведения различных жанров, кантаты и оратории, а также его творческие поиски в области музыкального театра, киномузыки и оперного

искусства. Особое внимание уделяется взаимосвязи национального музыкального мышления, авторского подхода, использования жанровых и формообразующих возможностей и современных принципов композиции в его произведениях. В статье многогранное творческое наследие Мирхалила Махмудова оценивается в контексте основных этапов развития узбекского профессионального музыкального искусства, раскрывается роль композитора в обогащении национальных музыкальных традиций новыми средствами художественной выразительности.

Ключевые слова: творческий путь, симфонизм, макомный симфонизм, национальное своеобразие, новаторство, музыкальное мышление.

O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, professor Mirxalil Mahmudov milliy kompozitorlik maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari safida alohida o‘rin egallaydi. Salkam 60 yillik ijodiy faoliyati davomida hassos kompozitor yaratgan deyarli barcha janrlardagi durdona asarlari ko‘p sonli tinglovchilar e’tiboriga havola etib kelinmoqda. Ulardan bir qismi nafaqat jonajon o‘lkamiz hamda yaqin qo‘shni respublikalarda, balqi uzoq xorijiy mamlakatlarda ham munosib e’tirof etilib, san’at muxlislari tomonidan olqishlangan.

O‘spirinlik chog‘larida aka-uka Mirsodiq Tojiyev va Mirxalil Mahmudov Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida tahsil ko‘rishar ekan, yosh kompozitor Rumil Vildanov ularning kompozitorlikka qiziqishining avj olishida katta xizmat qildi. U zukko shogirdlariga mehribonlik ila jonbozlik bilan jahon klassik musiqasining olam-olam go‘zalliklarini ochib, kasb sirlarini va birlamchi ko‘nikmalarni singdirdi [5].

Poytaxt konservatoriyasiga kirishga muvaffaq bo‘lishi bilan Mirxalil birinchi ustozi R.Vildanov rahbarligi ostida qiziqish va izlanishlari kengayib, turli shakl va janrlar qamrovida kechdi. Talabalik chog‘larida Mirxalil barkamol simfoniya yaratish istagida akasi Mirsodiq bilan hamfikr bo‘lib, maslakdoshlikda ish tutadi. Ayni paytda cheksiz imkoniyalarga ega salobatli simfonik orkestri izlanuvchan yigit diqqat markaziga ko‘chadi. Yuqori ijodiy marralarni ko‘zlagan ekan, talaba o‘zbek musiqasi durdonalarini sinchkovlik bilan o‘rganadi, qonuniyatlarini tahlil etadi,

ijodkorona foydalanish yo‘llarini axtaradi. Shuningdek, jahon xalqlari mumtoz kompozitorlik merosini o‘rganib, ustuvor kasb vazifalarini ko‘zlaydi. Karl Orf, Igor Stravinskiy, Vitold Lyutoslavskiy, Kjishtof Pendereskiy kabi ilg‘or zamondoshlar asarlari bilan tanishadi. Ayniqsa, insonparvar xislatli musiqasi va mutafakkirona shaxsiyati bilan yangi ijodiy ufqlarni ochgan XX asrning daho simfoniyanavis kompozitori Dmitriy Shostakovich simfonik musiqasi iqtidorli yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Kasbiy ta’limning so‘nggi pallasida professor Feliks Yanov-Yanovskiy sinfida tahsil ko‘rar ekan, bitiruv bosqichi talabasi M.Mahmudov taqdim etgan “Navo” nomli to‘rt qismli ilk simfoniyasi yosh muallifga katta shon-shuhrat keltirdi. Zero, odatdagi malakaviy talabalik ishlaridan farqli o‘laroq, bu simfoniyada ko‘hna maqom an’analari bilan jahon andozalarining uyg‘unligi yorqin ifodasini topgani ayon bo‘ldi. Yosh Mirxalil mualliflik tafakkuriga moyil bo‘lgan holda, elga mashhur “Surnay navosi” zavqli kuy-ohanglariga, dilkash tanbur nolalariga tayanib ish tutdi. Katta simfonik orkestr cholg‘ulari yordamida, ayrim lavhalarda milliy tanburni ham maqsadli qo‘llagan ekan, o‘zbekona milliy, ayni paytda baynalmilal to‘rt qismli hashamatli simfoniya gavdalandi.

Tan berish kerak, katta va o‘rta avlodlarga mansub kompozitorlarning turli asarlarida maqom kuy va ohanglaridan unumli foydalanilgan. Buni Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, To‘lqin Qurbonov musiqa merosida kuzatish mumkin. Biroq, sof simfoniya janridagi izlanish natijalari tan olinadigan darajaga chiqmagan. Tom ma’nodagi zamonaviy simfonizm talablari esa birmuncha murakkabligi bilan ajralib turishi sir emas [2].

Eslashimiz lozim, 1960-yillar oxiri – 1970-yillar birinchi yarmida iqtidori baland yosh kompozitorlardan Mirsodiq Tojiyev va Mirxalil Mahmudov, Rustam Abdullaev va Ulug‘bek Musaev, Habibulla Rahimov va Nadim Norxo‘jaevlar birin-ketin o‘zlarining dadil ijodiy izlanish samaralari bilan respublikamiz musiqa

jamoatchiligiga tanildilar. O‘sha kezlari simfonik orkestr uchun bastalangan yirik shaklli asarlarning taqdimot-konsertlari ko‘pchilik e’tiborini tortib, ayniqsa maroqli o‘tardi. Hatto ayrim chiqishlar mutaxassislar davrasida qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgani rost. Zero, o‘zbek musiqasi zaminida jahon andozalariga mos keladigan simfoniya yaratish, bu dolzarb muammoning ijodiy yechimini topish vazifasi faol kompozitorlarimiz diqqat markazidan arimagan.

Umumjahon kompozitorlik san’ati olamida simfonizm deb nomlangan noyob ijodkorlik voqeligining tarixi uzun, salohiyati va salmog‘i beqiyosligi ma’lum. U XX asr o‘zbek simfonik musiqasida yorqin namoyon bo‘lgan holda, hozirgi zamon izlanishlarida ham milliy musiqamiz kasb mezonlaridan sanaladi. Eslaylik, simfonizm iborasini atoqli rus kompozitori va tanqidchisi Aleksandr Serov o‘z davrining ilg‘or kompozitorlik ijodiyoti yutuqlarini munosib tavsiflash o‘rnida ilk bor qo‘llagan. Keyinchalik ilmiy tushunchasi ta’rifini buyuk musiqa nazariyotchisi va kompozitor, akademik Boris Asafyev ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lgani allaqachon san’atshunoslik ilmida e’tirof etildi [1].

O‘zbekiston kompozitorlari XX asrning ikkinchi yarmiga kelib deyarli barcha janrlarni ijodkorona o‘zlashtirishga ulgurdilar. O‘z oldilariga ancha murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari natijasida xalqaro ko‘lamda ham obro‘-e’tibor orttirdilar. Bunga rang-barang milliy musiqa san’atimizning boyliklari hamda yorqin iste’dod egalarining sa’y-harakati tufayli erishilgan, albatta. 1970-yillarning boshlarida bu jarayon “o‘zbek simfonizmi”, keyinchalik “maqom simfonizmi”, “milliy simfonizm” kabi tushunchalarni taqozo etdi.

Shu kunga qadar cholg‘u musiqasining turli janrlarida asarlar bastalab, maqomga murojaat qilishda munosib yutuqlarga erishilgani e’tiborli. Bunda avvalo Ikrom Akbarov yutuqlari zamin yaratgan bo‘lsa, 1960-yillar oxiri – 1970-yillar boshidan Mirsodiq Tojiyev, hozirda keksa avlod vakillaridan bo‘lmish Mirxalil Mahmudov, Mustafo Bafoyev, Nuriddin G‘iyosov xizmatlari bo‘lak. “Maqom-

simfoniya”, “konsert-maqom”, “polifonik maqom” kabi maqom bilan bog‘liq so‘z birikmalari paydo bo‘lganini ham eslab o‘tish mumkin. Shu toifa asarlardan katta simfonik orkestr, torli orkestr, xor va simfonik orkestr kabi badiiy jamoalar ijro etishi uchun bastalangan namunalar ko‘paydi. Tabiiyki, voqelikka mos mazkur iboralarni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan mezonlar nimadan iborat? – degan haqli savol tug‘iladi. Amaliy javobni, jumladan, M. Mahmudov bastalagan uchta simfoniya, torli orkestr uchun yozilgan “Muxammas va ufor” turkumi, “Sharqona raqs” kabi durdona asarlardan topish aytarli qiyin emas.

O‘zbekiston kompozitorlari orasida Aleksey Kozlovskiy mashhur xonanda Halima Nosirova benazir kuylagan “Farg‘ona Tanavori”dan ilhomlanib, ovoz va simfonik orkestr uchun “Tanovar” nomli barkamollikda tengi yo‘q poema yaratdi. Muallif uni sof simfonik poemaga aylantirgani ham qimmatli bo‘ldi. Yana cho‘qqi yutuqlardan biri Reyngold Glier qalamiga mansub “Farg‘ona bayrami” uvertyurasi bo‘lib, uning kasbiyligi va badiiy barkamolligi yuksak baholangani bejiz emas. 1950-yillar o‘rtalaridan boshlab Ikrom Akbarovning simfonik janrlardagi katta yutuqlari e’tiborni tortdi. So‘ngra To‘lqin Qurbonov, Rashid Hamroyev, Feliks Yanov-Yanovskiy izlanishlari va topilmalari o‘zbek simfonizmini yanada boyitdi.

Darvoqe, avvalgi yillarda o‘tkazilgan bir qancha sinovlar, xususan, ustoz Ikrom Akbarov ilg‘or kasbiy tafakkuri ila paydo bo‘lgan barkamol simfonik poemalar orkestr dramaturgiyasini puxta o‘zlashtirib olish yo‘lida qo‘lga kiritilgan muhim yutuqlardan bo‘ldi. Musiqiy shakl, janr va uslublar qamrovi ancha kengaygan, muayyan tajriba orttirilgan galdagi bosqichda esa yangicha simfonik konsepsiyani vujudga keltirish ijod zaruratiga aylandi. Ana shunday izlanishlar jarayonida To‘lqin Qurbonov, Rashid Hamroyev, Feliks Yanov-Yanovskiy va boshqa mualliflar sof cholg‘u musiqasi rivojiga munosib hissa qo‘shishga muvaffaq bo‘ldilar [4]. Ular ketidan Mirsodiq Tojiyev va Mirxalil Mahmudov peshqadamlar safiga qo‘shilgan ekanlar, tinglovchilar hukmiga taqdim etgan ilk orkestr

matolaridanoq zamonaviy simfonizm cho‘qqilarini zabt etishga kuch-qudrati yetgani ayon bo‘ladi. Xususan, Mahmudov ijodiy topqirligini har xil janrlarda, turli yillarda bastalagan ko‘plab asarlari orqali ta’kidlash mumkin. Shu jumladan, xalqchil maqom ijodkorligi tartib-qoidalariga tayangan holda “Muxammas va ufor” nomli yangi cholg‘u turkumini ixtiro qildi, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

M.Mahmudovning ijodiy qiziqish va izlanishlar ko‘lami tobora kengayib, salohiyati ham ortadi. Avvalambor, u o‘zbek simfonik musiqasini mualliflik tafakkuri bilan yanada boyitib, yangi kashfiyotlarini tinglovchilar hukmiga havola etib kelgan. Bu borada Mirsodiq Tojiyev bilan safdosh bo‘lib ish tutgan holda o‘z ijodiy yo‘li va uslubini topdi. Xususan, 1985 yili Moskvada o‘tkazilgan XII Butunjahon yoshlar va talabalar festivali doirasida simfonik asarlardan iborat konsertda aynan Mahmudovning Ikkinchi simfoniyasi nufuzli xalqaro konsert dasturini ochib berishi O‘zbekiston simfonik musiqasi, qolaversa milliy kompozitorlik maktabi yutuqlarining yana bir faxrli e’tirofi bo‘ldi.

Hassos kompozitorning zamonaviy simfonizm tamoyillarini idroklash va talqin etishda o‘ziga xos ko‘zgulardan sanalgan uchta simfoniyasi, shuningdek uvertyura, Simfonik eskizlar va Xotira poemasi, skripka va simfonik orkestri uchun Konserti, torli cholg‘ular orkestri uchun Ipak yo‘li musiqasi, Dmitriy Shostakovich xotirasiga bag‘ishlovli poema hamda o‘zi shakllantirgan Muxammas va ufor (I-III) turkumi ayni paytda mavzu va janr jihatidan rango-rang uslubiy ko‘rinishlarda bo‘lsa-da, mohiyatan milliy va umuminsoniy badiiy qadriyatlarining mohirona mutanosibligiga erishilgan asarlardir.

Badiiy so‘z bilan vobastalikda to‘qilgan M. Mahmudovning dilkash va jozibador yirik asarlari talaygina. Bular orasida Erkin Vohidov she’rlari asosida “Toshkent zamini” kantatasi, Turob To‘la she’riga “Toshkent sadosi”, Gulchehra Nurullaeva she’riga “Ona qo‘shig‘i” oratoriyalari, “Ona madhi” poemasi, “Vatan shahnozi”, “Elga bahor keldi” singari ezgu tuyg‘ularni madh etuvchi teran

mazmunli, kuychan va jozibador qasidalari kishini maftun etmay qo‘ymaydi. Shuningdek, Yo‘ldosh Muqimov bilan hamkorlikda so‘nggi yillarda barpo etilgan “Ona-O‘zbekiston” hamda hali ijro etilmagan asarlaridan biri “O‘zbekistonim” oratoriyalarini tilga olish mumkin.

Tajribali ustoz-ijodkor respublikamiz musiqali teatrlariga mo‘ljallab, har xil mavzulardagi ajoyib adabiy asarlarni tanlab, shular asosida navosozlik qildi. Shu jumladan, sahna yuzini ko‘rgan Sohib Jamolning “Sindirilgan ko‘za”, Rixsivoy Muhammadjonovning “Aka-uka sovchilar” va “Davlat bolalari”, mashhur turk adibi Aziz Nesin qalamiga mansub “Hiylai sha’riy”, O‘tkir Hoshimovning “To‘ylar muborak” pesalariga bastalangan musiqali drama va komediyalari tomoshabinlarga ko‘p zavqu-shavq bag‘ishlab keldi.

Mirxalil Mahmudov kino san’ati xususiyatlarini puxta o‘zlashtirgani, musiqa bastalashdagi mahorati va epchilligi kino rejissyorlari bilan ayniqsa barakali ijodiy hamkorlik qilishi uchun qo‘l keldi. Tomoshabinlarning sevimli kinofilmlari orasidan “Suyunchi”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “O‘tgan kunlar”, “Chimildiq” (rej. M. Abzalov), “Oltin devor” (rej. R. Muhammadjonov), “Yaratganga shukur”, “Abdullajon” (rej. Z. Musoqov), “Tangalik bolalar” (T. Yunusov) singari jami 50 dan ziyod kinofilmlarga yozgan musiqasi mazkur asarlar muvaffaqiyati uchun xizmat qilgan hamda kino muxlislari qalbidan chuqur joy olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romani asosida Mirsodiq Tojiyev “Kumush” operasini bastalagan ekan, bu musiqiy asar katta sahna yuzini ko‘rmagani achinarli. Mirxalil bu g‘oyaga sodiq qolgan holda, juda qisqa vaqt oralig‘ida “Kumush” nomli o‘zining ilk operasini bastalashga muvaffaq bo‘ldi. Bu ajoyib asar 2019 yilda Alisher Navoiy nomidagi DAKTda sahnalashtirilgan.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining bastakorlik kafedrasi professori, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, 1-darajali mehnat faxriysi Mirxalil

Mahmudovning asarlari teran milliylik va yuqori kasbiylik xislatlari bilan yo‘g‘rilgan. U hozirgi zamon kompozitorlik asarlari uchun o‘z vaqtida “Yoshlar”, “Ofarin” mukofotlari sohibi, xalqaro va respublika ijodiy anjuman diplomlari bilan taqdirlangan.

Hassos kompozitorning sara asarlari maxsus musiqa o‘quv yurtlari uchun tayyorlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan ham munosib o‘rin olgan. Ustoz ijodkor ko‘p yillar davomida avval poytaxt musiqa bilim yurtida muallimlik bilan mashg‘ul bo‘lgan, hozirda esa O‘zbekiston davlat konservatoriyasida to‘plagan bilim va tajribasini yoshlarga ulashmoqda.

Tabarruk yoshda ijodkorlik bilan ustozlik ishlarini uzluksiz davom ettirayotgan professor Mirxalil Mahmudov yangi-yangi qimmatli g‘oya va tashabbuslarni ilgari surib, ustuvor rejalarini hayotga tatbiq etayotgan ardoqli san’atkorlarimiz safidagi faolligini yo‘qotmay kelmoqda. U ijodiy salohiyatini jonajon O‘zbekiston musiqa madaniyati va san’atini yanada boyitishga baxshida etib, uning gullab-yashnashi uchun bor kuch-g‘ayratini safarbar etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. – 2-е изд. – Ленинград: Музыка, 1971. – 376 с.
2. История узбекской советской музыки: в 2 т. / редкол.: Т. С. Вызго [и др.]. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1972– .
3. История узбекской советской музыки. Т. 3: 1968–1984 / Н. С. Янов-Яновская, Р. С. Абдуллаев, Ч. Р. Насырова [и др.]. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1991. – 279 с.
4. Янов-Яновская Н. С. Узбекская симфоническая музыка. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1979.
5. Юнусов Р. Мирсодиқ Тожиев. – Тошкент: Musiqa, 2018.

References

1. Asaf'yev, B. V. *Muzykal'naya forma kak protsess* [Musical Form as a Process]. 2nd ed. Leningrad: Muzyka, 1971. (in Russian)
2. Vyzgo, T. S., et al., eds. *Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki* [History of Uzbek Soviet Music]. 2 vols. Tashkent: Izdatel'stvo literatury i iskusstva, 1972–. (in Russian)
3. Yanov-Yanovskaya, N. S., R. S. Abdullayev, Ch. R. Nasyrova, et al. *Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki. T. 3: 1968–1984* [History of Uzbek Soviet Music. Vol. 3: 1968–1984]. Tashkent: Izdatel'stvo literatury i iskusstva, 1991. (in Russian)

4. Yanov-Yanovskaya, N. S. *Uzbekskaya simfonicheskaya muzyka* [Uzbek Symphonic Music]. Tashkent: Izdatel'stvo literatury i iskusstva imeni G. Gulyama, 1979. (in Russian)
5. Yunusov, R. *Mirsodiq Tojiyev* [Mirsodiq Tojiyev]. Toshkent: Musiqa, 2018. (in Uzbek)